
“Siz tadbirkor uchun nima qildingiz” aksiyasi doirasida tadbirkorlar bilan uchrashuvlar o‘tkazilmoqda

Qo‘shtepa tumani hokimligi hamda viloyat Bandlik bosh boshqarmasi hamkorligida “Siz tadbirkor uchun nima qildingiz” aksiyasi doirasida tumandagi tadbirkorlar ishtirokida uchrashuv o‘tkazildi.

Uchrashuvda viloyat Bandlik bosh boshqarmasi boshlig‘i Oybek Xomidov hamda boshqarmaning Davlat mehnat inspeksiyasi boshlig‘i Feruza Abdullajonovalar biznes yuritish muhitini yaxshilash, ish beruvchi va xodimlar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solish, aholi bandligiga ko‘maklashish bo‘yicha olib borilayotgan islohotlar, o‘zgarishlar xususida to‘xtalib o‘tdilar.







Uchrashuv davomida tadbirkorlar o'zlarini qiziqtirgan savollarga mutaxassislardan tegishli javoblarni oldilar.





So'nggida bandlik va mehnatga oid munosabatlarni o'rganish bo'yicha so'rovnoma ham o'tkazildi.

2019-12-12 17:50:27